# SHARTNOMA

2022 yil «12» 12 559-12-170-OB/2022-son Bog'ot shaharchasi

**YASHIL CHIROQ XORAZM MCHJ**_bundan buyon matnda **«Ijrochi»** deb ataluvchi nomidan rahbari **J.Latipov**
(yuk yuklovchi idora, korxona, muassasa, tashkilot nomi) (F.I.O.)
faoliyatini amalga oshiruvchi bir tomondan va__**Bog'ot tuman Obodonlashtirish boshqarmasi**_ bundan buyon
(byudjetdan mablag' oluvchi nomi)
matnda **«Byurtmachi»** deb ataluvchi nomidan rahbari ____**O.Avezov**___ faoliyatini ko'rsatuvchi, ikkinchi
(F.I.O.)
tomondan, quyidagilar to'g'risida ushbu shartnomani tuzishdi.

## 1. SHartnoma predmeti

**1.1. «Ijrochi»** shartnomada ko'rsatilgan mahsulot(lar)ni etkazib beradi, **«Byurtmachi»** esa shartnomada ko'rsatilgan mahsulot xaqini o'z vaqtida va belgilangan tartibda to'langandan keyin olish majburiyatini oladi.

**1. 2.**

| № | Maxsulot turi | O'l. bir. | Miqdori | Narxi | Umumiy qiymati |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Bog'ot tumani Qorqyontoq qishlog'iga kiraverish qismi va 15 son maktab yo'liga sbetafor sotib olish (o'rnatib berish xizmati bilan) | шт | 1 | 123 000 000 | 123 000 000 |
| | **Jami:** | **X** | **X** | **X** | **123 000 000** |

## 2. SHartnoma narxi, bahosi, summasi (qiymati)

**2.1.** SHartnomaning umumiy qiymati **_123 000 000_ (_Bir yuz yigirma uch million)** so'mni tashkil qiladi.

## 3. To'lov shartlari

**3.1. «Byurtmachi» «Ijrochi»**ning hisob-raqamiga shartnomada ko'rsatilgan mahsulot miqdori summasining 30 foizini oldindan 5 bank ish kunida o'tkazishni o'z zimmasiga oladi. Qolgan 70 foizi mahsulot to'liq etkazib berilgandan keyin o'tkazishni o'z zimmasiga oladi.

**3.2.** To'lov turi________To'lov topshiriqnoma____________________
(to'lov talabnomasi, to'lov topshiriknomasi, chek akkredetiv va boshqalar)

## 4. SHartnomaning bajarilish muddati

**4.1.** SHartnomaning 1.2-bandida ko'rsatilgan mahsulot **«Byurtmachi»**ga shartnoma imzolangandan keyin 10 kun vaqt ichida berilishi shart.

**4.2.** SHartnomaning amal qilish muddati: 2022 yil «12» dekabrdan 2022 yil «31» dekabrgacha o'z kuchida qoladi.

## 5. Taraflar huquqlari

**5.1. «Byurtmachi»**ning huquqlari:

**5.1.1.** Ushbu shartnoma asosida belgilangan mahsulotlarni o'z vaqtida va sifatli mahsulotni etkazishni **«Ijrochi»**dan talab qilishga;

**5.1.2. «Ijrochi»**dan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik natijasida etkazilgan zararni talab qilishga haqlidir.

**5.2. «Ijrochi»**ning huquqlari:

**5.2.1.** Ushbu shartnoma asosida belgilangan maxsulotlar uchun oldindan xaq to'lashni va amaldagi shartnoma va qonun xujjatlarida belgilangan tartibda xisob-kitoblarni amalga oshirishni **«Ijrochi»**dan talab qilishga;

**5.2.2. «Byurtmachi»**dan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik, maxsulotni qabul qilishda asossiz ravishda rad qilish natijasida etkazilgan zararni talab qilishga haqlidir.

## 6. Taraflar majburiyatlari

**6.1. «Ijrochi»** majburiyati:

**6.1.1.** SHartnomada ko'rsatilgan talablarga rioya qilgan holda o'z vaqtida **«Byurtmachi»**ga mahsulotni etkazib berish;

**6.1.2.** Tegishli darajada sifatli mahsulot yuborilganligi to'g'risida bildirish (xabarnoma) olgandan so'ng sifatli bo'lmagan mol-mulkni 1 kun ichida almashtirib berish yoki ushbu shartnomaning 1.2-bandiga asosan sifatli bo'lmagan mahsulot bahosini qaytarib berish.

**6.2. «Byurtmachi»** majburiyati:

**6.2.1.** Maxsulotni qabul qilish dalolatnomasini tuzgan holda ushbu shartnomada va qonun xujjatlarida belgilangan butlash tartibiga, soniga, sifatiga qarab muddatida mahsulotni qabul qilib olish;

**6.2.2.** Tegishli darajada sifatli bo'lmagan mahsulot kelib tushgani aniqlangandan keyin, bu xaqda dalolatnoma yozilib, 24 soat ichida **«Ijrochi»**ni ogoxlantirish.

**6.2.3.** Maxsulotning bahosini ushbu shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda to'lash.

Кўриб чиққан юрист: QOBULOV AZIZBEK RO'ZMATOVICH. Хужжат рақами: PM0638160312

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, ҳужжат коди: GM04201161

## 7. Taraflar javobgarligi

**7.1.** Mahsulot berish vaqtida shartnoma bandlariga to'liq rioya qilmaganligi uchun aybdor taraf boshqa tarafga etkazilgan zararni to'liq qoplaydi va kechiktirilgan har bir kun uchun 0,5 % miqdorda penya to'laydi, lekin 50 % miqdordan oshib ketmasligi kerak.
**7.2.** **«Ijrochi» «Byurtmachi»**ga mahsulotni o'z vaqtida etkazib berilmagan xar kuni uchun mahsulot bahosidan 0,5 % penya to'laydi.
**7.3.** SHartnoma talablarida ko'rsatilgan sifatlardagi hamda butlashdagi mol-mulk berilmagan bo'lsa, aybdor taraf 5 % miqdorida penya to'laydi.
**7.4.** Tegishli darajada sifatli bo'lmagan mol-mulkni o'z vaqtida almashtirishdan bosh tortsa, **«Ijrochi»** 5 % miqdorda jarima to'laydi.
**7.5.** Mahsulot uchun **«Byurtmachi»** o'z vaqtida yoki to'liq to'lovni amalga oshirmagan bo'lsa, kechiktirilgan har bir kun uchun mablag' miqdoridan 0,4 % penya to'laydi, lekin 50 % miqdordan oshib ketmasligi kerak.
**7.6.** **«Ijrochi»** omboridan o'z vaqtida mol-mulk olib chiqib ketilmasa, agar bu tomonlarning kelishuviga asosan ko'zda tutilgan bo'lsa, **«Byurtmachi»** xar bir o'tkazib yuborilgan kun uchun **«Ijrochi»**ga omborda saqlanganligidan kelib chiqqan zarar uchun 0,5 % miqdorida jarima to'laydi.
**7.7.** Jarima to'lash taraflarni shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

## 8. Fors-major holatlari

**8.1.** Hech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra va engib bo'lmas kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar emas. Urush e'lon qilinishi yoki boshlanishi, fuqarolar tartibsizligi, epidemiya, embargo, er qimirlashi, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar shular jumlasidandir.
**8.2.** Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch uch oy uzluksiz davom etsa, taraflar, bir-birini yozma ravishda ogohlantirib, shartnomaning ijrosini bekor qilishi mumkin.

## 9. Nizoni hal qilish tartibi

**9.1.** Ushbu shartnomada yoki unga bog'liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi.
**9.2.** Taraflarning kelishuvi bilan hal qilib bo'lmaydigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xo'jalik sudi orqali hal qilinadi.

## 10. SHartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi

**10.1.** Ushbu shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar faqat ikkala taraf tomonidan yozma ravishda tuzilib, imzo qo'yilgandan keyingina yuridik kuchga ega bo'ladi.
**10.2.** SHartnomani taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilishi mumkin.

## 11.KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV

12.1Tomonlar xamda ularning vakillari mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'grisida»gi qonun xujjatlarining talablariga zid keladigan xar qanday xarakatlarini amalga oshirmaydilar.SHu jumladan pora berishni taklif qilmaydi,va'da bermaydi,tovlamachilik qilmaydi,pora sifatida pul to'lamayda,bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan xolda pora bergan shaxsning manfatlarini ko'zlab muayyan xarakatlarni sodir etish yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy kiymatliklar yoki mulkiy naf olvaydi.Tomonlar ushu xarakatlarga yo'l qo'maslik ,o'yicha choralar ko'rishiga kafolat beradi.

## 12. Taraflarning yuridik manzilgohi va to'lov rekvizitlari

| «Ijrochi» | «Buyurtmachi» |
|---|---|
| _ YASHIL CHIROQ XORAZM MCHJ<br>(mol etkazib beruchining nomi) | Bog'ot tuman Obodonlashtirish boshqarmasi<br>(byudjetdan mablag oluchining nomi) |
| Manzili: Urganch tuman CHandirqiyat qishlog'i | Manzili: Bogot tuman Tinchlik kucha 2 uy |
| Tel/faks: | Tel/faks: 31-52-783 |
| h/r: **2020 8000 905359785001** | sh/hr*: 401722860332047065200110009 |
| Bank nomi: _AT Turon banki Urganch bo'limi_<br>MFO: _00551__ STIR: _308 292 724___<br>OKONX___________ | byudjetdan mablag oluchi STIRI:206943827 OKONX: 90290 G'aznachilik bo'linmasi nomi Moliya Vazirligi yagona gazna xisobvaragi G'azna h\v 23402300100001010 |
| Raxbar ______________ J.Latipov<br>(F.I.SH.) | Bank nomi: Markaziy bank Toshkent shaxar bosh boshkarmasi XKKM<br>MFO:00014 G'aznachilik bo'linmasi STIRI 201122919<br>Raxbar O.Avezov (lavozimi) (F.I.SH) |

(imzosi)
M.O'

(imzosi)
M.O'

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

PM0638160312

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: **Yashil chiroq Xorazm MCHJ bilan xaq evaziga mahsulot etkazib berish haqida.**

3. Loyihа ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Bog‘ot tumani obodonlashtirish bo‘limi tomonidan 12.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Bog‘ot tuman yuridik markazi bosh yuristkonsulti:**

**A.R.QOBULOV**
12.12.2022